



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*texnologiya fani o'qutuvchisi*

\_\_\_\_\_ *ning*  
*20\_\_-20\_\_-o'quv yiliga 8-sinf o'g'il*  
*bolalar uchun I yarim yillik*

**DARS**  
**ISHLANMALARARI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘IBDO‘ \_\_\_\_\_**

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan 8-sinf texnologiya fanidan o‘g‘il bolalar uchun  
I yarim yillik taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	O‘zbekistonda xalq hunarmandchiligining turlari, rivojlanish tarixi, istiqbollari	1		
2.	Xalq hunarmandchiligi bo‘yicha ko‘rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalari	1		
3.	<b>Amaliy mashg‘ulot:</b> Sovg‘a uchun quticha tayyorlash	1		
4.	<b>Amaliy mashg‘ulot:</b> Sovg‘a uchun quticha tayyorlash	1		
5.	<b>Amaliy mashg‘ulot:</b> Yig‘iladigan stulcha yasash	1		
6.	<b>Amaliy mashg‘ulot:</b> Yig‘iladigan stulcha yasash	1		
7.	<b>Amaliy mashg‘ulot:</b> Shashka doskasi va donalarini yasash. <b>Nazorat ishi №1</b>	1		
8.	<b>Amaliy mashg‘ulot:</b> Shashka doskasi va donalarini yasash. <b>Nazorat ishi №1</b>	1		
9.	<b>BSB-1. Amaliy mashg‘ulot:</b> Yog‘ochdan dekorativ soat tayyorlash	1		
10.	4-amaliy mashg‘ulot. Yog‘ochdan dekorativ soat yasash	1		
11.	O‘zbekistondagi ishlab chiqarish turlari	1		
12.	Texnologik jarayon haqida tushuncha	1		
13.	Suv quvrlari va kanalizatsiya	1		
14.	5-amaliy mashg‘ulot. Oddiy smesitel qurilmalarini tuzatish va ta‘mirlash ishlari	1		
15.	1-CHSB (40 ball). Oddiy smesitel qurilmalarini tuzatish va ta‘mirlash ishlari.	1		
16.	Zamonaviy qo‘l elektr asboblari. 6-amaliy mashg‘ulot. Qo‘l elektr asboblarini tuzatish ishlari	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: O‘zbekistonda xalq hunarmandchiligining turlari, rivojlanish tarixi, istiqbollari**

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy maqsad:** barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi, puxta bilim olishi, iqtidorini to‘la namoyon etishi, barcha qobiliyatlarini yuzaga chiqarishi hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topishida ko‘maklashish, fikrlashga, ijodkorlikka, zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabatlariga asoslangan talablar asosida professional tayyorgarligini oshirishga va jismoniy mehnat turlaridan samarali foydalanishga oid bilimlarni amaliyotda to‘g‘ri qo‘llay bilish, ma’naviy jihatdan ham sog‘lom bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar asosida xalq hunarmandchiligi texnologiyasi, ishlab chiqarish va ro‘zg‘orshunoslik tajribalari asosida ta’lim-tarbiya berish, axloqiy tushunchalarni shakllantirish, o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishi, unga erishish uchun nimalarga e’tibor berish kerakligini tushuntirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** kelajak hayotida muhim o‘ringa ega bo‘lgan va doimiy ravishda kerak bo‘ladigan amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishida hamda o‘zi qiziqqan kasb-hunar turlaridan birini to‘g‘ri tanlashida hamda tanlagan kasbini yetuk mutaxassisi bo‘lib, yurtimiz taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishga amaliy yordam berish.

**FK-fanga oid kompetensiyalar**

1. FK1-Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi.

2. FK2-Psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiya.

3. FK3-To‘g‘ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan’aviy, ananaviy.

**Dars uslubi:** tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

**Dars metodi:** guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

№	Bo‘limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		45 daqiqa

**I.Tashkiliy qism:** salomlashish yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish, dars uchun yetarli miqdorda zarur ashyolarni hozirlash.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

### **III. Darsning borishi:**

Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilik bilan aloqada takomillasha bordi. Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslar mavjudligiga qarab rivoj topgan, masalan, paxta va pilla bor yerda — to‘qimachilik, sifatli xomashyo bor yerda (masalan, Rishtonda) — kulolchilik, jun va teri ko‘p yerda — to‘qimachilik va ko‘nchilik, shunga qarab kosibchilik, o‘rmonlar ko‘p yerda — yog‘ochsozlik, ma‘danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish, temirchilik va boshqalar. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat taqsimoti bilan aloqador holda hunarmandchilikning uch turi shakllangan:

- 1) uy hunarmandchiligi;
- 2) buyurtma asosida mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik;
- 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik.

Uy hunarmandchiligi o‘rta asrlarda hunarmandchilikning eng keng tarqalgan turi bo‘ldi. Natijada hunarmandchilik mahsulotlari tovarga aylandi, tovar ayirboshlash uchun ishlab chiqarildi. Davr taqozosi bilan hunarmandchilikning yangi-yangi turlari vujudga keldi. Hunarmandlar ham turli mahsulotlar tayyorlash bo‘yicha ixtisoslasha bordilar. Bugungi kunda naqqoshlik san‘ati ancha rivojlantirilib, turli xil zamonaviy binolarga zeb berish ishlarida keng qo‘llanilmoqda. Naqqoshlik namunalarini, ayniqsa, yurtimizda qurilayotgan binolar va madaniyat saroylarida ko‘rish mumkin. Bunday yangi binolarni ko‘rib ko‘zimiz quvonchga, dilimiz zavq-shavqqa to‘ladi.

#### **Hunarmandchilik maktablari**

Toshkent ganchkorlik maktabi o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Bu maktabga xos naqshlar nozikligi, aniq simmetrik taqsimga egaligi, jozibadorligi bilan boshqa maktab uslublaridan farq qiladi. Toshkent ganchkorlik maktabi namoyandalari safida Usmon Ikromov, Toshpolat Arslonqulov, Mahmud Usmonov, Anvar Polatov kabi qator yetuk ustalar faoliyat olib borishgan. Buxoro ganchkorlik maktabi san‘atining eng rivojlangan o‘chog‘i hisoblanib, o‘ziga xos mayinligi, jozibadorligi va boshqa tomonlari bilan ajralib turadi. Buxoro ganchkorlik maktabining eng yirik namoyandalaridan biri akademik usta Shirin Murodovdir. Buxoro ganchkorlik maktabi namoyandalaridan usta Safar, usta Adis, usta Savri, usta Qurbon Yo‘ldoshev, usta Ibrohim Hafizov va boshqalarning ishlari nafaqat bizning yurtimizda, balki jahonda ham tanilgandir. Hunarmandlar qadimdan bir-birlari bilan uyushib, bir mahallada bilan shug‘ullansa shu nom bilan yuritilgan. Masalan, Buxoroda So‘fikorgar qishlog‘ining nomi hali ham saqlanib qolgan. U yerda hozir ham pichoqsozlar avlodi yashaydi. Chust, Xiva, Qo‘qon, Buxoro qadimdan pichoqchilik markazlari hisoblanib, ular o‘zining ishlash texnologiyasi, mahsulotlarining shakli, katta-kichikligi va bezaklari bilan bir-biridan tubdan farq qilgan.

O‘zbek xalq amaly bczak san‘atining eng keng tarqalgan turlaridan yana biri kandakorlikdir. Kandakorlik deganda, metallardan yasalgan badiiy buyumlarga o‘yib yoki bo‘rtiq qilib naqsh ishlash tushuniladi. Savdo-sotiqda qadimdan kandakorlik buyumlariga talab katta bolgan.

O‘zbek xalq hunarmandchiligida zeb-ziynat san‘ati bo‘lmish zargarlik alohida o‘rin egallaydi. Qo‘qonda shuhrat qozongan zargar ustalardan usta Mahmud, usta Omon hoji Marahimov, X. Najmiddinov, Namanganda usta Niyoz Oxun, Andijonda usta Oybergan, X. Otaboyev, Toshkentda S. Bobojonov, A. Shoislomov, Urganchda M. Abdullayev, Samarqandda X. Yuldashev, I. Kolimboyev va boshqalar zargarlik kasbining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar.

## “Hunarmand” uyushmasi va uning faoliyati

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng hunarmandchilik rivojida yangi davr boshlandi, xalq hunarmandchiligi bozor qoidalari zahirida qaytadan tiklandi. O‘zbekistonda xalq hunarmandlarining xususiy korxonalarini ochildi. Hunarmandchilik faqat ichki bozorga emas, balki eksportga ham ishlay boshladi. Mustaqillik yillarida xalq amaliy san‘atiga alohida e‘tibor berildi. Xalq ustalarining mehnatlari qadr topdi.

Prezident Farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasi xalq ustalari, hunarmandlari va musavvirlari “Hunarmand” uyushmasi tashkil qilindi. Uyushma faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida 2017-yil 17-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3393-sonli “Hunarmand” uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish choralar-tadbirlari To‘g‘risidagi Qarori qabul qilindi. “Hunarmand” uyushmasining asosiy maqsadi. Bugungi kunda hunarmandchilikning ganch o‘ymakorligi, yog‘och o‘ymakorligi, kandakorlik, miskorlik buyumlari, metall va tunukadan yasalgan buyumlar, milliy poyabzal, zargarlik, chinni, fayans va sopol buyumlari tayyorlash kabi 34 ta yo‘nalishi mavjud. Quyida xalq hunarmandlari tayyorlagan buyumlardan namunalari keltirilgan



### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Xalq hunarmandchiligi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. O‘zbek xalq hunarmandchiligini rivojlantirgan hunarmand ustalar va ularning ish usullari haqida gapirib bering.
3. Bozor munosabatlari sharoitida “Hunarmand” uyushmasining faoliyati va istiqboldagi asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
4. Xalq hunarmandchiligiga oid qanday kasblarni bilasiz?

**V. Baholash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muvotikama qilish, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifa:** Jadvalda xalq hunarmandchiligi yo‘nalishlari, yo‘nalishlar bo‘yicha tayyorlangan buyum nomlari berilgan. Yo‘nalishlar nomi qatorida berilgan buyum nomlari to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilganligini aniqlang

T/r	Yo‘nalish nomi	Buyum nomi	To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri (+/—)
1.	Yog‘och o‘ymakorligi	pichoq, xanjar, qaychi	
2.	Kulolchilik	choynak, piyola, lagan, ko‘za	
3.	Kosibchilik	etik, kavush	
4.	Pichoqchilik	yog‘och ustunlar, stol va stul, eshik va romlar, xon-taxta	

O‘IBDO‘: \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Xalq hunarmandchiligi bo'yicha ko'rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalari**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy maqsad:** barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi, puxta bilim olishi, iqtidorini to'la namoyon etishi, barcha qobiliyatlarini yuzaga chiqarishi hamda jamiyatda o'z o'rnini topishida ko'maklashish, fikrlashga, ijodkorlikka, zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabatlariga asoslangan talablar asosida professional tayyorgarligini oshirishga va jismoniy mehnat turlaridan samarali foydalanishga oid bilimlarni amaliyotda to'g'ri qo'llay bilish, ma'naviy jihatdan ham sog'lom bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar asosida xalq hunarmandchiligi texnologiyasi, ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik tajribalari asosida ta'lim-tarbiya berish, axloqiy tushunchalarni shakllantirish, o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, unga erishish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligini tushuntirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** kelajak hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan va doimiy ravishda kerak bo'ladigan amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishida hamda o'zi qiziqqan kasb-hunar turlaridan birini to'g'ri tanlashida hamda tanlagan kasbini yetuk mutaxassisi bo'lib, yurtimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga amaliy yordam berish.

**FK-fanga oid kompetensiyalar**

1. FK1-Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi.

2. FK2-Psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiya.

3. FK3-To'g'ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan'aviy, ananaviy.

**Dars uslubi:** tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

**Dars metodi:** guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Vaqt</b>
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		45 daqiqa

**I.Tashkiliy qism:** salomlashish yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish, dars uchun yetarli miqdorda zarur ashyolarni hozirlash.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar

yuzasidan ko'rsatma beriladi.

### **III. Darsning borishi:**

Mamlakatimizda xalq hunarmandchiligini yanada rivojlantirish, amaliy san'atning an'anaviy turlarini saqlash va qayta tiklashga, hunarmandchilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini va sifatini oshirish hamda hunarmandchilik sohasidagi kasblarni yoshlarga o'rgatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada turli xil ko'rgazma va tanlovlar tashkil etilmoqda. Bunday ko'rik-tanlovlarni maktab miqyosida yoki bir necha maktablar ishtirokida ham o'tkazish mumkin. Quyida "Mustaqil yurt hunarmandlari" mavzusidagi ko'rik-tanlovda ishtirok etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

#### **"MUSTAQIL YURT HUNARMANDLARI" mavzusidagi ko'rik-tanlovni tashkil etish to'g'risida N I Z O M**

**Ko'rik-tanlovning maqsadi:** o'quvchilarga an'anaviy xalq hunarmandchiligi turlarini o'rgatish orqali ularni kasb-hunarga yo'llash, milliy xalq hunarmandchilik an'analari bilan tanishtirish, tadbirkorlik va kasanachilik faoliyatiga yo'llash.

#### **Ko'rik- tanlovning yozifalari:**

— "Mustaqillik menga nima berdi, deb emas, balki men mustaqil yurt uchun qanday ishlarni amalga oshirdim" iborasini nechog'li tushunganliklarini aniqlash;

— xalq hunarmandchiligi bo'yicha buyumlar tayyorlashda o'zbek xalq hunarmandchiligining milliy an'alaridan foydalanish;

— xalq hunarmandchiligi bo'yicha ish usullarini o'rgatish va bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan buyumlar tayyorlash texnologiyasini o'rgatishga oid kompetensivalarni shakllantirish;

— o'quvchilarni qobihyat darajasi va shaxsiy qiziqishlarini hisobga olgan holda xalq hunarmandchiligiga oid kasb-hunarlarga yo'naltirish.

#### **Ko'rik-tanlovni tashkil etish bosqichlari:**

*Birinchi bosqichda* ko'rik- tanlovga qatnashuvchi o'quvchilar va ularning xalq hunarmandchiligi bo'yicha tanlagan yo'nalishlari ro'yxatga olinadi.

*Ikkinchi bosqichda* o'quvchilarning xalq hunarmandchiligi bo'yicha bilimlari sinovdan o'tkaziladi (o'quvchilarning bilim darajalari sinflar kesimida savol-javob, test va boshqa usullar asosida sinovdan o'tkaziladi).

*Uchinchi bosqichda* o'quvchilarning ko'rik-tanlov uchun topshirgan mustaqil ijodiy ishlari hakamlar hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi va baholash mezonlari asosida baholanadi.

*To'rtinchi bosqichda* o'quvchilarga tanlagan xalq hunarmandchiligi yo'nalishlari bo'yicha ijodiy ish topshiriqlari beriladi. Bajarilgan ijodiy ish topshiriqlari hakamlar hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi va baholash mezonlari asosida baholanadi.

T/r	Birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichlar bo'yicha	50 ball
1.	Ko'rik-tanlov anketasini to'ldirganligi uchun	5 ball
2.	Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'zlashtirilgan bilim darajasi uchun	20 ball
3.	Ko'rik-tanlovga topshirgan mustaqil ijodiy ishi uchun	25 ball

T/r	To‘rtinchi bosqich (tanlangan xalq hunarmandchiligi yo‘nalishlariga oid ijodiy ish topshiriqlari) bo‘yicha	50 ball
1.	Amalga oshirilgan ishning mavzuga mosligi	5 ball
2.	Ish o‘rnining to‘g‘ri tashkil qilinishi	10 ball
3.	Buyumning texnologik xaritasi tuzilganligi va ish texnologik xaritada belgilangan ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarilganligi	15 ball
4.	Tayyorlangan buyum dizaynining o‘ziga xosligi	10 ball
5.	Xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilinganligi	10 ball

### Hakamlar hay'ati faolivati va tanlov mezonlari

Ko‘rik-tanlov ishlarini baholash uchun tuman (shahar) xalq ta‘limi bolimlari “Texnologiya” fani yo‘nalishi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan, o‘z sohasining bilimdoni, hurmat-e‘tiborga sazovor bo‘lgan o‘qituvchi, pedagoglardan iborat hakamlar hay‘ati tuziladi. Ularning tarkibiga maktablarning eng tajribali “Texnologiya” fani o‘qituvchilari kiritiladi va har bir bosqichda maktabda maktab direktorining, tumanda tuman xalq ta‘limi bo‘limining, viloyatda viloyat xalq ta‘limi boshqarmasining maxsus buyruqlari bilan tasdiqlanadi.

Tanlovga taqdim etilgan har bir ish uchun alohida baholash varaqalari To‘ldiriladi, hakamlar hay‘ati tomonidan imzolanib, tanlovning keying bosqichiga taqdim etiladi.

### G‘oliblarni mukofotlash

Ijodiy ishlar tanlovining barcha bosqichida 1 ta birinchi, 1 ta ikkinchi va 1 ta uchinchi o‘rin ta‘sis etilib, 1, 2, 3 -o‘rinlarni egallagan g‘oliblar maktab, tuman (shahar), viloyat xalq ta‘limi bo‘limlarining faxriy yorliqlari va qimmatli sovg‘alari bilan mukofotlanadilar.

### IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Xalq hunarmandchiligi bo‘yicha ko‘rgazma va tanlovlarni tashkil etish tartibini tushuntirib bering.

2. Mamlakatimizda an‘anaviy xalq hunarmandchiligi bo‘yicha tashkil etilayotgan qanday korgazma va ko‘rik-tanlovlarni bilasiz?

**V.Baholash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muxokama qilish, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantirish.

**VI.Uyga vazifa:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## *Zokirjon Admin bilan*

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**39 listdan iborat texnologiya fanidan 8-sinf o‘g‘il bolalar I yarim yillik konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**



Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

To‘lov uchun: **UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:  
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA  
HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!  
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**